

DOSTONLARNI IJRO ETISHDA AKTYORLIK MAHORATINING TUTGAN O'RNI

Zamatdinov Adilbek Mirzaevich

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali Rejissura san'ati
kafedrasi dotsenti v.v.b.*

Dilbar Abdramanova Maratbay kızı

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali Folklor va
etnografiya mutaxassisligi talabasi.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodining yirik janrlaridan biri bo'lgan dostonlarni ijro etishda aktyorlik mahoratining tutgan o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Dostonlarning ijrochilari bo'lgan jirov va baxshilarning bir vaqtning o'zida cholg'u asbobini chalib, nasri va qo'shiq ijro etish mahorati, dostondagi qahramonlarning obrazlariga kirib, voqealarni bayon eta olish qobiliyatlari haqida ma'lumot beriladi.*

Kalit so'zi: *Madaniyat, xalq ijodi, og'zaki ijod, doston, epos, aktyorlik mahorati, jirov, baxshi, qahramonlik dostonlari, liro-epik dostonlar.*

Har bir millatning o'z ma'naviy dunyosi, madaniyati bor. Mamlakatimizda barcha soha va tarmoqlar qatori madaniyat va san'at, adabiyot, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, keyingi paytda bu soha rivojini yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha katta ishlar qilinmoqda. Oliy ta'lim tizimida yuqori malakali, ijodiy va tashabbuskorlik qobiliyatiga ega, kasbiy va hayotiy muammolarni mustaqil hal qila oladigan, yangi texnika va texnologiyalarga tez moslasha oladigan kadrlarni tayyorlashda ta'lim jarayonini zamonaviy o'quv-metodik komplekslar bilan ta'minlash muhimdir. Bu borada esa amaliyotga tatbiq etilayotgan yangi dasturlar va innovatsion takliflar yaxshi natijalar bermoqda. Har bir xalqning o'ziga xos madaniyati, urf-odatlar, an'anaviy qo'shiqlari, yozma adabiyoti, og'zaki ijodi bo'ladi. Jumladan, turkiy xalqlar og'zaki ijodining yirik janrlaridan biri dostonlar hisoblanadi.

Dostonlar xalq og'zaki ijodining yuksak namunalaridan biri bo'lib, unda xalqning orzu-intilishlari, tarixiy yodgorliklari, dardi va quvonchi, qahramonlik va sadoqat bilan bog'liq g'oyalar aks ettirilgan. Dostonlarni ta'sirli qilib yetkazish esa faqat matnni yodlash uni aytish bilan cheklanmaydi, balki bu jarayonda dostonning ijrochisi bo'lgan - baxshi yoki jirovdan - o'zining aktyorlik mahoratini ishga solishni talab etiladi va undagi har bir obraz jonlantiriladi.

Dostonlarning syujeti qiziqarli va chigal voqealarga quriladi. Ularda el deb yig'lagan erlarning jasoratli ishlari, yoki o'z muhabbatiga sodiq bo'lgan oshiqning taqdirleri kuylanadi. Dostonlarining syujetlari ko'pincha she'r shaklida, ayrim dostonlarda she'r va qora so'z bilan aralash bayon etiladi.

Xalqlarning o'z vatanini sevishi, haq va adolat tantanasi yuksak ishonch bilan tasvirlanadi. Bu dostonlar xalqni dushmanlariga qarshi kurashga va vatanni himoya qilishga chaqiradi.

Dostonlar bizga ko'p zamonlardan beri avloddan avlodga, og'izdan og'izga o'tib kelgan va shu kungacha saqlanib qolgan og'zaki ijodimizning bebaho boyligidir.

Qahramonlarning quvonchi, qayg'usi, jasorati, qo'rquvi - bularning barchasi doston ijrochisini aktyorga aylantiradi.

U o'zining ovozi, mimikasi, tana harakati orqali tinglovchini voqealar markaziga olib kiradi. Ijrochi ovozini turli vaziyatlarga moslashtira olishi kerak.

Qahramonning botirligi, dushmanlarga bo'lgan haybati, sevgilisining nola va zorli ohanglari - bularning har biri maxsus ovoz texnikasini talab etadi.

Aktyorlik mahorati, ayniqsa, bu borada muhim o'rin tutadi. Dostonlarni ijro etishda dramatik sahnalar ko'p uchraydi. Masalan, qahramonlik va lirik, azobli ayriliqlar, fidoyilik holatlari - bularning barchasi kuchli emotsionallik ko'rsatishni talab etadi. Aktyorlik mahorati orqali jirov yoki baxshilar bu sahnalarning ta'sirchanligini kuchaytiradi.

San'at - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi, dunyoni ruhiy anglashning alohida shakli.

San'atning turli ko'rinishlari voqeaning, undagi hodisa, narsa va holatlarni o'ziga xos usullar yordamida aks ettirish. (masalan, musiqada - tovushlar, ularning o'zaro bog'lanishi, uyg'unligi orqali, badiiy adabiyotda - so'z, obrazlar orqali).

Lekin shu bilan birga, ular o'rtasida ma'lum bir o'xshashlik bor.

Bu o'xshashlik shundan iboratki, ularning barchasida voqelik badiiy obrazli tarzda aks ettiriladi.

Haqiqiy san'atning har qanday turi, ayniqsa, teatr san'ati shaxs kamoloti va insoniy fazilatlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

San'atni tushunish, uning odamlar hayotidagi rolini aniqlash masalasi butun madaniyat tarixi davomida keskin raqobat, tortishuvlarga sabab bo'lib kelgan.

Masalan, ayrim rassom va san'atshunoslar san'atni "tabiatning taqlidi" yoki "haqiqatning in'ikosi" deb hisoblasalar, boshqalari san'atni "san'atkorning sof shaxsiy ijodi mahsuli," "o'zini o'zi namoyon qilishi," deb bilganlar.

Bu san'at predmetning murakkabligi, uning xususiyatlari va shakllari, yig'ish usullarining xilma-xilligi hamda har xil davrlarda san'at nazariyotchilarining sinfiy va g'oyaviy fikrlari o'rtasidagi farqlar bilan tushuntiriladi.

Qoraqalpoq dostonlarining so'zi ham, kuyi ham bir butun birlikni tashkil etib, odatda dostonning professional ijrochisi tomonidan ijro etiladi.

Bular-jirov-baxshilar. Demak, dostonning bu xususiyati ham uning janr xususiyatlariga tegishli.

Dostonlarning unutilmay og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tishida, xalq orasiga keng tarqalib sevimli bo'lishida, bu holat alohida rol o'ynagan. Dostonlarning

mazmunining xarakteriga qarab cholg'u asboblarning tanlanishi ham qiziqtiradigan narsa.

Masalan, qoraqalpoq qahramonlik dostonlari ko'pincha qo'biz bilan, liro-epik dostonlar esa ko'p hollarda dutor cholg'u asbobi bilan ijro etiladi.

Demak bu qo'biz bilan ijro etiladigan jirovlar bilan, dutor bilan ijro etiladigan baxshilarning repertuarlarining o'ziga xosliklari bor degan so'z.

Bunday o'ziga xoslikning qoraqalpoq eposlarida borligiga A. K. Borovkov ham qo'shilgan edi.

Dostonning nomi bilan xalq badiiy san'atining ko'p turlari bog'lanib keladi. Birinchidan, so'zga chechanlik, ikkinchidan, ovozi, uchinchidan, soz cherta bilish, to'rtinchidan, shoirlik (qanday darajada bo'lmasin), beshinchidan, kulgili so'z topib so'zlash va h.k.

Shunday qilib, dostonning janr xususiyati o'zining mazmuni bilan shakliga, ijro usuliga xalq san'atining bir necha turlarini singdira olgan. Xalqimiz madaniyati tarixida teatr san'ati bo'lmagan bir davrda og'zaki xalq dostonlarining xalq orasida ijro etilishi katta voqea bo'lgan.

Dostonning ichki mazmunini katta voqea tashkil etadi deb o'tdik.

Voqeaning bayoni dostonda o'zining qanchalik soddaligiga qaramasdan qiziqarli va tinglovchini o'ziga tortishi shundaki, voqea asta-sekin rivojlanib-chigallashib boradi, voqea markazidagi qahramonning taqdiri, ma'lum bir tugunni egallash bilan, boshqacha aytganda bog'lana boshlagan tugun tosh bo'lib, endi uning yechilishi, keyin nima bo'lishi mo'ljallansa ham alohida e'tiborni tortadi.

Hodisa dostonda tashqi ko'rinishi bo'yicha tasvirlansa, qahramonlar oz bo'lsa-da ichki tuyg'u dunyosi bilan so'z etiladi. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, qoraqalpoq qahramonlik dostonlarida qanday bo'lganda ham voqeani ham, odamni ham tashqi ko'rinishi bo'yicha tasvirlash ustun asosiy o'rinni egallaydi.

Og'zaki ijro etiladigan qoraqalpoq dostonlarining shoirlar yaratgan yozma shakldagi dostonlardan farqi ham shu masalada farq qiladi. Ikkinchisida so'zsiz odamlarning ichki dunyosini tasvirlash ancha ustun.

Bu holat qoraqalpoq adabiyotining tarixida yozma adabiyotning keng va har tomonlama rivojlanish imkoniyatiga bog'liq holda yanada chuqurlashtirishi seziladi.

Qoraqalpoq dostonlarida bayon jirov yoki baxshilarning so'zi orqali, qahramonlarning monolog, dialoglari orqali beriladi.

Xulosa qilib aytganda, dostonlarni ijro etishda aktyorlik mahorati g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Dostonlar – bu oddiygina hikoyalar emas, balki xalqning o'tmishi, orzu-umidlari, qadriyatlari va hissiyotlarining badiiy ifodasidir. Dostonni ijro etuvchi esa ana shu ma'naviy boylikni tinglovchilarga yetkazuvchi ko'prik vazifasini o'taydi.

U nafaqat hikoyachi, balki aktyor, rejissyor, rassom va sozandadir. U o'zining aktyorlik mahorati bilan dostonni jonlantiradi, unga hayot bag'ishlaydi va uni tinglovchilar qalbiga muhrlaydi.

Aktyorlik mahoratisiz doston shunchaki so'zlar to'plami bo'lib qolishi mumkin, xolos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ravshanjon Dexqonov.AKTYORLIK MAHORATI-O'quv Qo'llanma. Qo'qon – 2020
2. O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODI. O'quv qo'llanma. Toshkent<<Mumtoz Soz>>2010
3. Q_Maqsetov,_Á_Tájimuratov_qaraqalpaq_folklorı_1979
4. Q.AYIMBETOV XALIQ DANALÍGÍ. NÓKIS-1983
5. S.QAZAQBAEV .QARAQALPAQ SALT-DÁSTÚR JÍRLARÍ. NÓKIS-2012